

DELTA-GEPATIT KASALLIGI EPEDIMIOLOGISI, HUSUSIYATLARI VA PROFILAKTIKASI

Mahammadov Muhammadrasul Rahmat o‘g‘li

Marg‘ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi
jamoat salomatligi texnikumi talabasi

Annotatsiya:

Delta-gepatit (DG) – RNK saqlovchi Delta virus keltirib chiqaradigan yuqumli kasallik bo‘lib, bu kasallik bemor organizmida hepatit B virusi mavjud bo‘lgandagina paydo bo‘ladi va virusli hepatit B kasalligining kechishini og‘irlashtiradi.

Keyingi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar, ilgari VGB kasalligi deb atalgan hepatitlarning bir qismi aslida hepatit B virusi (HBV) va Delta virusning (HDV) bir paytda yuqishi natijasida sodir bo‘ladigan kasallik ekanligini isbotladi. Bunday kasallik og‘ir klinik shakllarda namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: DNK, virus, epedemiologiya, shtamp, immunitet, infektion jarayon, immunofermentatsiya, nukleotid.

Delta-infektsiyaning klinik kechishi va asoratlariga qarab bir necha turlari farqlanadi. Delta virus ba’zida o‘tkir virusli hepatitga o‘xshash, ba’zida esa surunkali virusli hepatitga yoki jigar tsirroziga o‘xshash klinik belgilar bilan namoyon bo‘ladigan kasallikni chaqiradi. Delta virus ba’zida kasallik belgilarisiz, virus tashuvchanlik shaklida ham namoyon bo‘ladi. JSST ma'lumotlariga ko‘ra dunyodagi 15 mln. HBsAg tashuvchilarida Delta virus ham mavjudligi aniqlangan. Hozirgi davrda bu raqam 25 mln. kishidan ko‘proq. HDV hayvonlar va odamlarda kasallik chaqiradi.

Delta virus bиринчи мarta 1977 yili M. Rizzetto tomonidan topilgan. Ushbu virusning diametri 28-39 nm bo‘lib tarkibida RNK (1700 nukleotidlar) saqlaydi, shuningdek, virus tarkibida ikkita Delta-antigen (DAg) va virus "qobig‘i" mavjud. Delta-virusning eng asosiy xususiyati uning HBV bilan judayam yaqin aloqadaligidir. Jigar hujayralarida HBV mavjud bo‘lgandagina Delta-virus yangi jigar hujayralariga yuqish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Delta virusning o‘zi hepatit B virusisiz hech qachon kasallik chaqiraolmaydi.

Kasallik qo‘zg‘atuvchisining manbai

Gepatit D kasalligi tipik antroponoz kasallik hisoblanadi. Gepatit D kasalligining yuqish yo‘llari xuddi virusli gepatit B kasalligiga o‘xshaydi.

Kasallik qo‘zg‘atuvchisining manbai o‘tkir yoki surunkali virusli gepatit D bemorlaridir. Organizmda HBsAg ga qarshi antitelolar bo‘lmagan har qanday yoshdagi kishilar gepatit D bilan kasallanishi mumkin.

Dastlabki tadqiqotlar Delta-virus bilan odam organizmi birinchi marotaba uchrashganda infektsion jarayon ko-infektsiya tarzida kechishini, ya’ni bir paytda ikkita virusning (HDV va HBV) yuqishi natijasi ekanligini aniq-lagan edi.

Gemotransfuziyada qon orqali yoki giyohvndlarga shprislar orqali yuqqan koinfektsiyada (o‘tkir mikst gepatitda) kasallikning klinik belgilari o‘tkir virusli GV klinik belgilaridan farq qilmaydi.

Surunkali gepatit D kasalligining asosiy xususiyati unda jigar tsirrozi virusli gepatit B kasalligiga nisbatan ertachiroq paydo bo‘lishidir. Delta infektsiya uzoq vaqt (5-6 yil) davomida faol infektsion jarayon tarzida kechadi va ko‘p holatlarda jigar tsirrozi rivojlanishiga sabab bo‘ladi. HBsAg musbat bo‘lgan jigar tsirrozi bor surunkali virusli gepatit B bemorlari tekshirilganda, ularning 89,1% Delta-infektsiya mavjudligi aniqlangan.

Virusli gepatit D kasalligi asosan muloqot mexanizmi bilan yuqadi. Virusli gepatit D tabiiy sharoitda ham, sun‘iy yo‘l bilan ham bemor qoni-dagi virusdan yuqadi. VGB ga nisbatan Delta-gepatitning yuqishi uchun qonda viruslar miqdori ko‘proq bo‘lishi kerak.

Gomo - va geteroseksual muloqotlar davrida ham kasallik yuqadi. Homilador onadan tug‘ilayotgan chaqaloqqa yo‘ldosh orqali kasallik yuqishi isbotlangan. Chaqaloqlar ona qornida perinatal davrida kasallikni yuqtirishi juda kam holatlarda uchraydi, bu homilador ona qonida viruslar soning kamligi bilan bog‘liq bo‘lsa kerak.

Delta-infektsiyada oilaviy o‘choqlilik hollari kuzatilishi mumkin, bunda viruslar asosan jinsiy yo‘l bilan yoki teri butunligi buzilishi natijasida maishiy-muloqot yo‘li bilan yuqadi. Oilada mavjud bo‘lgan surunkali Delta-gepatit bemorlaridan kasallik juda sekin, uzoq muddatlar davomida tarqalishini ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari tasdiqlagan.


Qon quyish jarayonida, operasiyalar davrida, tibbiy muolajalar davrida viruslarning sun‘iy yo‘l bilan yuqishi epidemiologik ahamiyatga ega.



Delta-gepatitni yuqtirish xavfi yuqori bo‘lganlarga, qon va qon preparatlari bilan muloqotda bo‘ladiganlar, gemodializ bo‘limlarining bemorlari va boshqalar kiradi. Gepatit Delta, xuddi gepatit B kasalligiga o‘xshab dunyoning barcha mamlakatlarida uchraydi. Ammo lekin Delta-infektsiyaning rasmiy qayd qilinishi barcha mamlakatlarda to‘liq bo‘lмаганлиги sababli, ushbu gepatitning, umumiyligi o‘tkir virusli gepatitlar ichidagi ulushi va kasallanish ko‘rsatkichi nisbiy hisoblanadi.

Delta gepatit har bir mamlakatning har xil hududlarida notejis tarqalgan. Masalan Rossiya Federasiyasida o‘tkazilgan tadqiqotlarda HBs-antigenemiyasi mavjud bo‘lganlar qonida Delta-virusga nisbatan har xil ko‘rsatkichlarda antitelolar aniqlangan.

Tekshirilgan HBsAg tashuvchilar qonida Delta viruslarga qarshi antitelolar Moskvada-3,1%, Vladimirda-2,9%, Nalchikda-6,4%, Tuvada-21,0%, Yakutiyada-21,6% hollarda aniqlangan. Demak har xil hududlarda Delta-infektsiyaning yuqish xavfi har xil, qaerda HBsAg tashuvchilar soni ko‘p bo‘lsa, o‘sha hududlarda Delta-infektsiya ham ko‘proq tarqalgan.



Rossiyaning har xil hududlarida HBs-antigenemiyali kishilarda Delta-virusga qarshi antitelolarning IFA usulida aniqlanishi (Favorov M.O. hammualliflari; Kuzin S.N., 1998)

O‘zbekistonda Delta-infektsiyasi bilan kasallanish ko‘rsatkichi keyingi yillarda birmuncha ko‘tarilgan, bu jarayon ushbu kasallilikning laboratoriya tashxisoti yo‘lga qo‘yilganligi bilan bog‘liq bo‘lgan statistik ko‘tarilishdir.

Kasallanganlarning tarkibi

Delta-gepatitlar uchun xavfli aholi guruhi, xuddi gepatit B singari, katta yoshdagilar hisoblanadi. Kasallik yuqish xavfi ko‘proq bo‘lganlar bu giyohvandlar, fohishalar, gemofiliya, surunkali buyrak kasalligi bor bemor-lardir. Tibbiyat xodimlari ish faoliyatida qon va qon preparatlari bilan ishlaganda ushbu kasallikni yuqtirishi mumkin.

Xavfli omillarga gepatit B infektsiyasi mavjudligi va gepatit B kasalligini tarqatuvchi barcha omillar kiradi, bunday omillarga giyohvandlar, fohishalar, tartibsiz jinsiy aloqa qiluvchilar, qon va qon preparatlari bilan ishlovchilar, tez-tez qon quyiladigan bemorlar kiradi.

Epidemiologik nazorat

Delta-gepatitning epidemiologik nazorati gepatit B kasalligi bilan birga olib boriladi. Epidemiologik nazorat quydagi ishlar bajarilishini taqozo qiladi:

- virusli gepatit D va V kasalligi bilan kasallanish va virus tashuvchilik haqida uzlusiz ma'lumot to‘plash, kasallanishning ko‘p yillik va yillik dinamikasini, hududlar bo‘yicha tarqalishini tahlil qilish;
- epidemiologik vaziyatga qarab ushbu kasalliklarning oldini olish va unga qarshi kurashish chora-tadbirlarini o‘tkazish dasturlarini qabul qilish.

VGD kasalligining epidemiologik nazoratida kasallikka ertachi tashxis qo‘yish, barcha bemorlarni ro‘yxatga olish muhim ahamiyatga ega. Kasallikning laboratoriya tashxisoti, bemorlar qonida Delta-antigenni (HDAg) va HDV qarshi JgG va JgM antitelolarni aniqlashga asoslangan.

Delta-antigenni immunoflyuoressent usuli bilan jigar to‘qimasida aniqlash mumkin. HDAg ga qarshi ishlab chiqarilgan JgG va JgM immunoglobulinlar immunoferment va radioimmun usullar yordamida aniqlanadi.

Xuddi virusli gepatit B kasalligidagi singari Delta-gepatit tashxisotida gepatit D virusining RNK-sini aniqlash uchun PZR usulidan foydalilanadi. Hozirgi zamonaviy diagnostik usullar Delta-virus RNK-sini 10-100 nusxa /ml aniqlash imkoniyatiga ega.

Gepatit D tashxisini laboratoriya usulida tasdiqlash bemor qonida Delta-antigen, JgG va JgM anti HDV va gepatit D virusining RNK-sini aniqlashga asoslangan. Bunda JgG va JgM antitelolarining faqatgina aniqlanishi emas, balki uning miqdori

(kontsentrasiyasi) ahamiyatga ega, chunki gepatit D virusi infektsiyasida ushbu antitelolarning miqdori boshqa Gepatitlarga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi.

Delta-infektsiya faqat virusli gepatit B kasalligi bilan birga kechadigan bo‘lganligi uchun profilaktika va epidemiyaga qarshi kurash chora-tadbirlari xuddi virusli gepatit B kasalligidek amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Musaboyev “Yuqumli kasalliklar” darslik 2016
2. <https://med24.uz/uz/bolezn/gepatit-s>
3. Giyaseva. Dadamuhamedova. “Yuqumli kasalliklar va infektion nazorat” o’quv qo’llanma